


O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professor-o'qituvchilari tomonidan 2021 yil oktyabr – 2022 yil iyun oylarida Xalq ta'limi vazirligiga qarashli A.P.Xlebushkina nomidagi 22-sonli Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari uchun tashkil etilgan tog'araklar haqidagi

HISOBOT

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda O'zbekiston davlat jahon tillari rektorining tashabbusi bilan O'zDJTU professor-o'qituvchilari tomonidan Xalq ta'limi vazirligiga qarashli A.P.Xlebushkina nomidagi 22-sonli Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilari uchun ingliz, fransuz, nemis va yapon tillaridan tog'araklar tashkil etildi. 2021 yil 24 sentyabr kuni O'zDJTU rektori Ulug'bek Azizov va A.P.Xlebushkina nomidagi 22-son Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari davra suhbatini o'tkazildi hamda tarbiyalanuvchilarning qiziqishlariga qarab guruhlariga ajratib olindi va tanishuv darslari o'tkazildi.



Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilariga O'zDJTU rahbariyati tomonidan badiiy va ilmiy adabiyotlar, lug'atlar tuhfa qilindi.



Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining qiziqishlariga qarab ingliz tilidan **“Boost your English”**, nemis tilidan **“TRAUM”**, yapon tilidan **皆の日本語第** hamda fransuz tilidan **“Parlez-vous français?”** to'garaklariga a'zo bo'lishdi.

“Boost your English” ingliz tili to'garagi.

“Boost your English” ingliz tili to'garagiga O'zDJTU ingliz tili uchinchi fakulteti Ingliz tili nazariy aspektlari №3 kafedrası o'qituvchisi Kasimkhodjayeva Mo'tabar Alimdjanovna mas'ul etib tayinlandi. Mas'ul tomonidan to'garakning ishchi o'quv dasturi tuzildi va ushbu dastur asosida to'garak darslari olib borildi. M.Qasimkhodjayeva va to'garakga a'zo bo'lgan mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari o'zaro kelishgan holda to'garakning o'tkazilish grafigi tuzilgan.


To'garak haftaning chorshanba va juma kunlari soat 18:00 dan 19:00 gacha olib borildi.




Ishchi o'quv dasturga asosan: o'quvchilar R.Murphy "English Grammar in Use" elementary va intermediate darajalariga tegishli grammatika mavzulari; "Reading Explorer 1" kitobi bo'yicha turli matnlar oq'ib so'z boyliklari va talaffuz hamda tog'ri o'qish qoidalari bilan amaliy tanishdilar. Shuningdek mavzuga doir audio-video materiallarni tinglab tomosha qilishdi va mashqlar ishlashdi.



Rejadagi off-line darslardan tashqari mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari bilan rejadan tashqari on-line mashg'ulotlari telegram platformasida olib borildi.





Barcha tinglovchilar to'garakda faol qatnashdilar va o'z bilimlarini oshirdilar.

“Parlez-vous français?” fransuz tili to'garagi.

“Parlez-vous français?” fransuz tili to'garagiga O'zDJTU roman-german filologiyasi fakulteti fransuz tili nazariy fanlari kafedrasida dotsenti, falsafa doktori



(PhD) Raximova Gulsanam Ashirbekovna mas'ul etib tayinlandi.

2021-2022 O'quv yili maboynida mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari uchun fransuz tili fanidan tashkil etilgan **“Parlez-vous français?”** nomli to'garak

haftaning har chorshanba va juma kunlari soat 14:00da muntazam ravishda 2021 yil oktyabrda 2022 yil iyun oylariga qadar o'tkazildi.

To'garak uchun maxsus ishlab chiqilgan va universitet tomonidan tasdiqlangan ishchi o'quv dasturi va kalendar rejaga muvofiq to'garak mashg'ulotlari o'tkazildi.



To'garak mashg'ulotlari rejaga muvofiq turli mavzular, grammatik va fonetik qonun-qoidalar mas'ul professor-o'qituvchi tomonidan o'tildi.

“TRAUM” nemis tili to'garagi.

“TRAUM” nemis tili to'garagiga O'zDJTU roman-german filologiyasi fakulteti nemis tili nazariy fanlari kafedrasida o'qituvchisi Xolmatova Feruza mas'ul etib tayinlandi. Mas'ul tomonidan to'garakning ishchi o'quv dasturi tuzildi va ushbu dastur asosida to'garak darslari olib borildi. M.Qasimkhodjayeva va to'garakga a'zo bo'lgan mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari o'zaro kelishgan holda to'garakning o'tkazilish grafigi tuzilgan.

To'garak haftaning seshanba va juma kunlari soat 14:00 dan 16:00 gacha olib borildi.



Mashg'ulotlarda Saidov nemis tili grammatikasi, Menschen A/1darslik va internet saytlaridan foydalanildi. O'quvchilarga, deutsche Alphabet Vorstellen-Tanishuv, Grussen Salomlashish Zahlen -Sonlar, dialoglar, to'g'ri o'qish va talaffuz qoidalarini o'rganishdi. Shuningdek mavzuga doir audio-video materiallarni tinglab tomosha qilishdi va mashqlar ishlashdi.




Mashg'ulotlardan tashqari dam olish maqsadida mehribonlik uyi rahbariyatining roziligi bilan ko'ngil ochar joylarga (kinoteatr va gipermarketlar) tashriflar uyushtirildi.



皆の日本語第 yapon tili to'garagi.

“皆の日本語第” yapon tili to'garagiga O'zDJTU sharq tillari fakulteti yapon tili nazariyasi va amliyoti kafedrası o'qituvchisi Baxtiyorova Pokiza Baxtiyorovna mas'ul etib tayinlandi.



2021-2022 O'quv yili maboynida mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari uchun yapon tili fanidan tashkil etilgan “皆の日本語第?” nomli to'garak haftaning har seshanba va payshanba kunlari soat 15:00dan 16:30gacha muntazam ravishda 2021 yil oktyabrdan 2022 yil iyun oylariga qadar o'tkazildi.



To'garak uchun maxsus ishlab chiqilgan va universitet tomonidan tasdiqlangan ishchi o'quv dasturi va kalendar rejaga muvofiq to'garak mashg'ulotlari o'tkazildi.

To'garak mashg'ulotlari rejaga muvofiq turli mavzular, grammatik va fonetik qonun-qoidalar mas'ul professor-o'qituvchi tomonidan o'tildi.

Barcha tashkil etilgan to'garaklardan mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarning bilimlarini aniqlash maqsadida boshlang'ich nazoratlar o'tkazildi. Ularning yakuniy bilimlarini aniqlash va qiyoslash maqsadida yakuniy nazoratlar o'tkazildi. Natijalarga ko'ra mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining o'rgangan xorijiy tillaridan bilim ko'nikmalari oshganliklarini kuzatishimiz mumkin.

Shuni ham ta'kidlab o'tishimiz kerakki, 2021-2022 o'quv yili oktabr oyida A.P.Xlebushkina nomidagi 22-son Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining umumiy

soni 92 nafarni tashkil etgan bo'lsa, yil oxiriga kelib quvonchli holat sabab guruhda tarbiyalanuvchilar soni keskin kamaydi, ya'ni aksariyat tarbiyalanuvchilar o'z oilasi bag'riga qaytarildi yoki farzand boqishni hojlab kelgan oilalar tomonidan olib ketilishi tufayli barcha to'garak guruhlarida o'quvchi soni qasqardi.

Undan tashqari, bitiruvchi sinflarda tahsil olayotgan mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilariga ingliz, nemis va fransuz tillaridan o'zlari qatnashayotgan to'garaklarda oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun test sinovlariga tayyorlanishi uchun tillar kesimidagi to'garak mas'ullari tomonidan ko'shimcha darslar tashkil etildi.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining bo'sht vaqtlarini mazmunli o'tkazishi uchun O'zDJTU professor-o'qituvchilari hamda faol talabalari tomonidan turli mavzularga oid davra suhbatlari, ko'ngil ochar tadbirlar o'tkazildi.

Mas'ul



T.S.Ismailov